

JANUBIY KOREYA MAK TABGACHA TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Madjitova Kamola Azlar qizi

Chirchiq shahar kasb-hunar maktabida ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyodagi ta'lismi eng rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan Koreya Respublikasining maktabgacha ta'lismi tizimiga oid kerakli ma'lumotlar berilgan. Koreya Respublikasi maktabgacha ta'lismining rivojlanish bosqichlari, yutuqlari va to'plangan ilg'or tajribalari namuna sifatida keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiyalar, maktabgacha ta'lismi, beri, Inson kapitali ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lismi federatsiyasi

Koreya maktabgacha ta'lismi tizimida bolalar ta'limi va tarbiyasi turli xildagi mukammal tuzilishdagi maktabgacha ta'lismi muassasalarida olib boriladi. Janubiy Koreya maktabgacha ta'lismi muassasalari 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabga har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiya berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan va bu vazifalalarni bajarish Ta'lismi vazirligi hamda Inson potensiali rivojlanishi vazirligi tomonidan boshqariladi va nazorat qilinadi.

Koreya Respublikasida ta'lismi masalalari bilan Ta'lismi Vazirligi shug'ullanadi. 2001-yildan Kim De Chjun ma'muriyati fuqarolarning sifatlari ta'lismi olishi va umuman inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarni boshlab berdi, natijada esa avvalgi vazirlik zimmasiga yana bir qator qo'shimcha vazifalar yuklatilib, ularning vakolatlari kengaytirildi, ular inson taraqqiyoti bo'yicha barcha masalalar bilan shug'ullana boshladilar, maorif vaziriga bosh vazir o'rinosi lavozimi berildi. Vazir prezident tomonidan qisqa muddatga (taxminan bir yilga) tayinlanadi. Maktabgacha ta'lismi majburiy hisoblanmasada, oxirgi yillarda bu ta'limga katta e'tibor qaratilmoqda.

1980-yilda mamlakat bo'y lab 901 ta bog'cha bo'lgan bo'lsa, 1992-yilga kelib, ularning soni 8498 taga yetdi. Bu bog'chalarga 450882 ta bola yoki 4 yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalarning 40%ni qatnagan. 2000-yilda ham ular soni o'zgarmay qoldi. Ta'lismi va inson resurslarini rivojlantirish vazirligi maktabgacha ta'lismi tizimini rivojlantirishning uzoq muddatli rejasini tuzdi. 2012-yilga kelib bu reja 100% maktabgacha bo'lgan bolalarni qamrab oldi. Bog'cha tarbiyachilari kollej yoki universitetda 2-4 yil kichik va katta yoshdagi maktabgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturi asosida malakaga ega bo'lishlari shart.

Bog'chalar bolalarga nazariy bilimlar emas, aksincha, ularni har tomonlama shakllantirish, jismoniy sog'lom va emotsiyal shakllangan, o'ziga ishongan qilib tarbiyalashni maqsad qilib qo'ygan.

Koreyadagi ilk maktabgacha ta'lim muassasasi XIX asrning oxirlarida tashkil etilgan. Mamlakatning milliy maktabgacha ta'lim dasturi esa 1969-yilning birinchi choragida, ilk davlat maktabgacha ta'lim muassasasi esa 1976-yilda tashkil etilgan. 1983-yildan boshlab har bir shahar va provinsiyalar uchun Ta'lim vazirligi tomonidan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishni nazorat qiluvchi rahbarlar tayinlandi. 1994-yildan boshlab Since to'liq kunlik bog'cha dasturlari qo'llanila boshlandi, 1997-yilda 5 yoshgacha bo'lgan bola maktabgacha yosh etib qonuniylashtirib qo'yildi. Janubiy Koreyada go'daklarga va bolalarga g'amxo'rlik qilish 1921-yildan boshlandi.

1991-yildan boshlab Koreya Sog'liqni saqlash va xalq farovonligi vazirligi bolalarni tarbiyalash va ularga g'amxo'rlik ma'suliyatini o'z zimmasiga oldi. Buning natijasida Koreya hukumati 1995-yildan 1997-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimi uchun 1,3 trillion von mablag' (tahmiman 1milliard AQSH dollari) ajratildi. Natijada qariyb 20 000 taga yaqin bolalar uchun muassasalar ochildi. Bu davrlarda Koreyada tug'ilish ko'rsatkichlari o'sdi. Ammo shu qatorda oilaviy ajralishlar ham tezlik bilan o'sib bordi. Natijada 2002-yilga kelib ayollarning jamiyatdagi ishtiroki 49,8 foizga yetdi. Jamiyatdagi faol ayollar qatlamini 25 yoshdan 34 yoshgacha bo'lgan ayollar tashkil etar edi.

Ayollarning jamiyatda faol o'rinni egallashining sabablaridan biri bu bolalarga davlat tomonidan yaratib berilgan qulayliklar va ularning ta'lim-tarbiyasi uchun ko'rsatilgan g'amxo'rliklardir. Chunki ayollar ushbu islohot amalga oshmaguncha faqatgina farzandlarining ta'lim-tarbiyasi bilan band bo'lib kelgan va o'z kasblari va karyeralari uchun vaqt ajrata olmas edi. Janubiy Koreyada bolalarga ta'lim berish va tarbiyalash uzoq tarixga borib taqaladi va tarixda ushbu tizim bir necha bosqichlarda rivojlanib kelgan. Yosh avlodni tarbiyalash tarixda ham huddi hozirgi kabi maktagacha ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu muassasalar 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi.

Birinchi maktabgacha ta'lim muassasasi 1897-yilda qurilgan. Bu davrda Koreya davlati Yaponiya mustamlakasi tarkibiga kirar edi va bu muassasa ham yaponlarning tashabbusi va rahbarligi ostida tashkil qilindi. 1913-yilda esa Koreyaliklar ilk bora o'z farzandlari uchun bog'cha tashkil etishdi. 1914-yilda esa Amerika bilan hamkorlikda bog'chalar uchun pedagoglar tayyorlaydigan kollej va boshqa muassasalar ham qurildi. Maktabgacha ta'lim tizimi nazorati kuchaytirildi

va qonun 1949-yilda ishlab chiqilganligiga qaramay 1922-yildan boshlab nazorat o'rnatildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun yagona milliy dastur 1969-yil ishlab chiqildi va mamlakatdagi barcha bog'chalar ushbu dastur asosida faoliyat yurita boshlashdi. Xuddi shunga o'xshash ta'lim dasturlari boshlang'ich, o'rta, yuqori ta'lim tizimlari uchun ham ishlab chiqilib, har 5 yilda qayta ko'rib chiqilib, yangilanib turilishi belgilab qo'yildi. Ushbu yangilanishlarda hukumat dunyo miqyosida yuz beradigan yangilanishlar va o'zgarishlarni kiritib borgan. O'sha davrda yaratilgan dasturlar hozirda ham takomillashtirilgan ko'rinishda Koreya ta'lim tizimida amalda qo'llaniladi. Davlat tasarrufidagi ilk bog'cha 1976-yilda qurilgan.

Koreya davlatining yosh avlodni rivojlanishi va tarbiyasini nazorat qiluvchi hukumat idoralari tomonidan 1981-yildan boshlab xususiy maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish va uni innovatsion dasturlar asosida boyitish tashabbusini berdi. Shunday qilib, 1927 ta davlat tasarrufidagi bog'chalar asosan qishloq joylarda qurilgan bo'lsa, 1023 ta xususiy maktabgacha ta'lim muassasasi qurildi. [1, 42]

Janubiy Koreya o'qituvchilar uyushmasi 1947-yilda o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish hamda ta'lim tizimini rivojlantirish uchun jahon tajribalarini olib kirish maqsadida tashkil etilgan. Bu tashkilot turli ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchi, pedagoglarni birlashtirib turadi. Tashkilotning asosiy maqsadi yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish va ularning bilim olishlari uchun qulay muhit yaratib berish. [1, 45]

Koreya davlati ta'lim tizimidagi yana bir o'ziga xosligi shundan iboratki, ularda Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi federatsiyasi mavjud. Ushbu tashkilot 1981-yilning iyul oyida davlat maktabgacha ta'lim federatsiyasi nomi bilan tashkil etildi va 1996-yilda Koreya maktabgacha ta'lim federatsiyasi nomiga o'zgartirildi. Bu tashkilotning asosiy qisminini hozirgi kunda xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari hisoblanib, federatsyaning asosiy maqsadi ham milliy ko'rinishdagi ilg'or maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish va uni rag'batlantirishni ko'zda tutadi. Federatsiya o'z oldiga bolalarni tarbiyalash va ularga boshlang'ich bilimlarni berishda yangi va o'zgacha usul va usublarni izlab topishni maqsad qilib qo'yan. Maktabgacha ta'lim federatsiyasi 1998-yil sentabr oyida imzolangan "Bolalar ta'limini rivojlantirish to'g'risida" gi qaror asosida o'z faoliyatini yuritadi. Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maygi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori
2. Ilk qadamı maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi. T.: BMT Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF), 2018. Tuzuvchilar: И.В.Грошева va boshqalar-T.:,2018.- 71 bet
3. A.Bolibekov, M.Yo’ldosheva. Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim-tarbiya. Guliston – 2019-y. 14-b.
4. J.G’.Yo’ldoshev. Xorijda ta’lim. “Sharq” nashriyot matbaa konserinining bosh taxririysi. – Toshkent: 1995.
5. Masaru Ibuku. Uchdan keyin kech. “Akademnashr”. Toshkent – 2021.